

INSON MANFAATLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA OMBUDSMANNING O'RNI

Shokirova Mubina¹

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

KEYWORDS

Ombudsman, inson
manfaatlari, xalqaro hamkorlik,
sud-huquq, murojaatlar,
huquqiy ong, BMT, Inson
huquqlar umumjahon
deklaratsiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada inson manfaatlari himoyachisi, Ombudsmanning kelib chiqish tarixi, bir nechta davlatlarda ularning olib borayotgan faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili (ombudsman)ning inson manfaatlari himoya qilishdagi vazifa va burchlari, shuningdek xalqaro hamkorlik loyihalari haqida so'z boradi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15677319](https://doi.org/10.5281/zenodo.15677319)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. Tarixdan ayonki, insoniyat ko'plab urush va notinchliklarni boshdan o'tkazdi, xususan Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari esa eng ayanchli va uzoq salbiy oqibatlariga ega bo'lgan urushlardan edi. Ushbu davrlar mobaynida inson huquq va manfaatlari masalasi hech kimni qiziqtirmas edi. Ammo urush yakunlanishi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahonda barqaror tinchlikni ta'minlash, insoniyat xavfsizligini dastlabki o'rinlarga qo'yishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bu yo'lda 1948 yil, 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilindi. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklarini e'lon qilib, shu tariqa xalqaro munosabatlarda birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berildi. Mamlakatimiz ham inson manfaatlari himoya qilish masalasini o'zining ustuvor maqsadlari safiga qo'yar ekan, bu borada ham qonunchilik sohasida va uning amaliy ijrosini tashkil etishida ulkan qadamlar qo'ydi.

Tabiiyki, yurtimizda inson huquqlari va manfaatlari to'laqonli ta'minlash borasida olib borilgan ishlar istiqbol yillarida biroz kamchiliklari mavjud bo'lsada, bugungi kunga kelib Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyati kamchiliklari bartaraf etib kelinmoqda. Tan olish kerakki, yaqin-yaqingacha ijtimoiy va iqtisodiy muammolar inson qadr-qimmatini ham

¹ O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Siyosatshunoslik 2-kurs talabasi

pasaytirib kelayotgan edi. Bejizga birinchi davlat rahbarimiz “Iqtisodiy muammolar demografik holatlarda yuzaga kelgan ahvol bilan qo‘shilib, ijtimoiy masalalarni hal etishni g‘oyat dolzarb qilib qo‘ydi.

O‘zbekistonda aholining turmush darajasi sobiq Ittifoqdagi respublikalar ichida eng past bo‘lib qoldi. Ma‘lumotlarga qaraganda, 1990-yilda respublika aholisi 70 foiziga yaqinining jami daromadi tirikchilik o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan eng quyi darajadan ham past edi. Ayni paytda Rossiya va Ukrainada aholining 30 foizga yaqinagina shunday ahvolda kun kechirgandi. Mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash ham murakkab muammo bo‘lib qoldi” deya bejizga so‘z yuritmagan edi [1]. Bugungi kunga kelib, inson qadri birinchi o‘rinda deb belgilandi va bu borada nafaqat davlatimizning siyosiy institutlari, balki nodavlat va notijorat tashkilotlar ham samarali faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashda bugungi kunda ombudsman faoliyati qay darajada tashkil etilganligini ham dolzarb va ahamiyatli mavzu desak mubolag‘a bo‘lamyadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolada birinchi davlat rahbarimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” kabi asarlari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi direktori, professor A.X.Saidovning “O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi” nomli kitobi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili instituti rasmiy internet sahifasi va qonunchilik hujjatlaridan foydalanilgan. Ushbu maqolada yuqorida berilgan asarlar mualliflarining ombudsmanning faoliyati, kelib chiqish tarixi va bugungi kunda qay darajada ombudsman inson manfaatlarini himoya qilayotganligi to‘g‘risida fikrlari bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillari mobaynida O‘zbekistonda Respublikasining inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari shakillandi, ular tarkibiga demokratiyaning va inson huquqlarining umume’tirof etilgan prinsiplariga, o‘zining xalqaro majburiyatlariga sadoqat, inson huquqlarini himoya qilishda milliy manfaatlar ustuvorligi, inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda rivojlantirish, demokratik islohotlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi yo‘nalishlar kiradi.

O‘zbekistonda inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni ushbu prinsiplarga tayangan holda jamiyat hayotiga, fuqarolarning va davlat xizmatchilarining ongiga singdirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Ta’kidlash joizki, aynan inson huquqlari sohasida ombudsmanning faoliyati chambarchas bog‘liqlikni kasb etadi. Dastavval, ombudsman kimligi va uning kelib chiqishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda “inson huquqlarini himoya qiluvchi” vakil sifatida ombudsman tushuniladi. Ombudsman eng avval shved qiroli huzurida faoliyat yuritgan bo‘lib, keyinchalik parlament shakillangandan so‘ng 1809 yildan Parlament huzuriga ko‘chgan.

Islom davlatlarida faoliyat yuritgan muhtasiblar ham ombudsman kabi faoliyat olib borgan. Muhtasiblar fuqarolarning ma’muriyat harakatlari ustidan shikoyatlarini ko‘rib

chiqgan. Muhtasib ko'z bilan ko'rgan tajovuzning oldini oladi, hujjat mavjud bo'lib javobgar bironing haqiga iqror bo'lsa, uning haqini undirib beradi, ammo sudga tegishli ishlarni, masalan, guvohlarni eshitish, ont ichirish va qaror chiqarish salohiyatiga ega emas. Bu kabi da'volarni sudga yuboradi; Ombudsman ham sudning vakolatiga taalluqli bo'lgan masalalarni ko'rib chiqmaydi (Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni, 10-modda, uchinchi qismi); Ombudsman ham muhtasib kabi o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi; Ombudsman instituti fuqarolarning inson huquqlari sohasidagi ijtimoiy ongini oshirishga ko'maklashadi. Umuman olganda, ikkalasi ham inson huquqlarini himoya qiladi. Shu o'rinda bir tarixiy siyosiy vaziyatga nazar tashlasak, ispan elchisi Klavixo Amir Temur huzuriga tashrifi to'g'risidagi kundalida yozishicha, Temur topshiriq berganda o'z vaqtida bajarmagan rahbarlar va ularning bu kamchiligi haqida axborot beruvchi shaxslar bo'lgan. Shuningdek, fuqarolar murojaati bilan ishlamagan aynan ana shunday rahbarlarning shaxsan Amir Temur tomonidan ko'pchilik ichida jazolangani Klavixo tomonidan epizod sifatida qayd etilgan. Shu misolda ham ko'rishimiz mumkinki, inson huquqlari buzilishiga yo'l qo'yganlarga Amir Temur siyosati qat'iy bo'lgan [2].

Mustaqillikka erishar ekanmiz, ombudsman faoliyatini tartibga solishda bir qator qonunlar ishlab chiqildi. Xususan, 1997 yil 24 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonun va ushbu qonunning 2024 yil 17 sentabrda yangi tahriri qabul qilindi. Shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti 1995 yilda tashkil etilib, ushbu institut MDH hududida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda ta'sis etildi. O'zbekistondagi Ombudsman institutiga to'xtalishdan avval mazkur institut tashkiliy va xalqaro asoslariga izoh berib o'tsak.

Ombudsman – so'zi shved tilidan olingan bo'lib, "xalq himoyachisi" degan ma'noni anglatadi.

Ombudsman – inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs. Ular inson huquqlarini turli ma'muriy organlar tajovuzidan saqlashni maqsad qilib qo'yadi. Ular fuqarolarning murojaati yoki o'z tashabbusi bilan tekshiruv ishlarini yuritadi. Huquq buzilishlarini aniqlagan vaqtda, shu huquq buzilishi aybdori bo'lgan organga qonunsiz hujjat yoki harakatlarini bekor qilishini taklif etadi. Agar taklif bajarilmasa, u holda sudga yoki parlamentga murojaat qiladi.

1809-yilda Shvetsiya Qirolligi konstitutsiyasiga binoan inson huquqlari bo'yicha Vakil Ombudsman instituti joriy etildi. Mazkur konstitutsiyaning 96-bo'limiga muvofiq, Ombudsman institutiga adolat va boshqaruvni nazorat qilish vakolatlari berilgan. Shunga ko'ra, yangi institut mamlakatning mansabdor va mas'ul shaxslari tomonidan kundalik turmush sharoitida sodir etilayotgan huquqqa xilof harakatlar va qonun buzilishlarini hamda ularning harakatlari qanchalik qonunga muvofiqligini kuzatib turgan.

Finlyandiyada yangi Respublika hukumati o'rnatilgach, 1919-yilda "Parlamet ombudsmani", "Vakillik palatasining a'zosi" nomi ostida inson huquqlari bo'yicha Vakil instituti joriy etildi va bu sohada Finlyandiya dunyodagi 2-mamlakat sifatida tan olindi. Inson huquqlari bo'yicha vakil shved ko'rinishiga asoslangan bo'lib, unga mamlakatning boshqa hokimiyat idoralari va sud tomonidan qonunlari ijrosini nazorat qilish bo'yicha keng ko'lamdagi vakolatlar berilgan edi[3]. Ombudsman

instituti 1975-yilda Portugaliya tomonidan, 1978-yilda esa Ispaniya davlati tomonidan qabul qilindi. Shu tariqa mazkur institut dunyoning 120 dan ortiq mamlakati tomonidan tan olindi. Yevropa Ittifoqi 1995-yil 27-sentabrdan boshlab o'zining Ombudsman institutiga ega.

BMTning 2001-yil 14-iyundagi 55/258-sonli hamda 2001-yil 24-dekabrda 56/253-sonli rezolyutsiyalariga muvofiq BMT Ombudsmanining kotibiyati ta'sis etildi. 2002-yil 26-aprelda BMT Bosh kotibi Kofi Annan Yamayka davlati elchisi Patriniya Darrantni BMTning birinchi Ombudsmani etib tayinladi. Bu lavozim 2001-yilning oxirida Bosh Assambleya tomonidan ta'sis etilgan edi. BMTning birinchi Ombudsmani 2002-yil 14-iyul kundan boshlab o'z vazifasini bajarishga kirishdi. 2002-yilning 25-oktabrida Ombudsman kotibiyatining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. BMT Ombudsmani Bosh kotib yordamchisi sifatida ta'sis etilgan bo'lib, 5 yil muddatga, hech qanday uzaytirishsiz tayinlanadi. Ombudsman institutiga asoslangan, shu xildagi mansabdor shaxslar turli mamlakatlarda turlicha nom bilan ataladilar. Masalan, Shvetsiya, Daniya, Polsha, Kanadada – Ombudsman, Fransiyada – Vositachi, Ruminiyada – Xalq advokati, Rossiyada – Inson huquqlari bo'yicha vakil, Skandinaviya mamlakatlarida – Ombudsman, Ispaniya va Kolumbiyada – Xalq himoyachisi deyiladi.

Bizning jamiyatda esa, Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili lavozimi bo'lib, u Oliy Majlis deputatlari orasidan saylanadi. Shuningdek, qonunga muvofiq, ombudsman mansabdor shaxs hisoblanib, u davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshiradi.

Ombudsmanning asosiy prinsiplari qonuniylik, mustaqillik, adolatlilik, insonparvarlik, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, xolislik, ochiqlikdan iborat. Inson huquqlari himoyachisi siyosiy partiyaga a'zolikni yoki unda ishtirok etishni o'z vakolatlari muddatiga to'xtatib turishi yoxud tugatishi shart hisoblanadi. Ombudsmanning inson huquq va manfaatlarini himoya qilishda o'zining bir qator vazifa va majburiyatlari mavjud. Xususan, u tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilishi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish, aholi o'rtasida inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi xalqaro hamda milliy qonunchilik normalarini targ'ib qilish, shuningdek aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga ko'maklashish, inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

kabi ko'plab vazifalarni bajarishga mas'ul hisoblanadi. Bundan tashqari yana bir vazifa, ya'ni ichki ishlar organlari tizimiga ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan maxsus muassasalarda, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining garnizoni hamda qo'shin gauptvaxtalarida, vaqtincha saqlash hibsonalarida, tergov hibsonalarida jazoni ijro etish muassasalarida qiynoqqa solish va boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash hollarining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish vazifasi ham ombudsmanning burchi hisoblanadi[4].

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlarda inson qadrini oshirishga asosiy e'tibor qaratilib kelinayotgan ekan, ombudsmanning vazifalari ham yanada mas'uliyat talab qiladigan darajaga ko'tarilib bormoqda. Inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar huquqiy madaniyatini takomillashtirish maqsadida davlat va nodavlat sektorlar tomonidan olib borilayotgan targ'ibot ishlari ma'lum darajada o'z natijasini berayotganligi ushbu tashkilotlarga aholi tomonidan kelayotgan murojaatlar soni oshib borayotganligi bilan ham izohlanadi. Ombudsman instituti parlament nazorati instituti sifatida har bir insonning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'ul sifatida shaffof faoliyat yuritishi zarur. Bundan tashqari, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sohaga oid tizimli muammolarni aniqlash, huquq buzilishlarini oldini olishga doir kompleks choralar ko'rish, huquqiy savodxolikni oshirishda muhim huquqiy lanshaftning bir qismidir.

Ombudsmanning mas'uliyati va vazifalari ortib borar ekan, uning faoliyatida ham ratsionallashtirish tizimni guvohi bo'lishimiz mumkin. Ma'lumki, parlament va tegishli institutlarning inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha rolini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 iyundagi "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda 2021 yil 10 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Shu tariqa, 2022 yil 1 yanvardan ombudsmanning joylarni doimiy asosda faoliyat yurituvchi hududiy 14 vakili lavozimi joriy qilindi. Mazkur yangilik ombudsmanning joylarda inson huquqlarini ta'minlashga doir faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ombudsman faoliyatini takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilandi [5].

Ushbu inson manfaatlarini qo'llab-quvvatlashda ombudsmanning faoliyatini yanada takomillashtirishning ham asosiy sabablaridan biri fuqarolarning farovonligini ta'minlash, xalq manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustun qo'yish va demokratik siyosat olib borish hisoblanadi. Shu o'rinda ombudsmanning eng asosiy vazifasi ya'ni fuqarolarni murojaatlarini ko'rib chiqish vazifasini ham alohida tahlil qiladigan bo'lsak, qonunning 10-moddasiga binoan, vakil O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hamda O'zbekiston

Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzayotgan tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarning harakatalari yoxud harakatsizligi ustidan bergan shikoyatlarini va u o'z tekshiruvini o'tkazish huquqiga ega. Vakil uchinchi shaxslarning, shu jumaladan nodavlat va notijorat tashkilotlarning muayyan kishi yoki bir guruh shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi ustidan bergan shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun, basharti ularning bunga roziligi bo'lsa, qabul qiladi. Vakil sudning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni ko'rmaydi [6].

Dunyoning ko'p mamlakatlaridagi ombudsmanning qonunchilikdagi fuqarolarni murojaatlarini qabul qilish faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, ombudsmanga murojaat qilish uchun muayyan muddatlar belgilangan. Masalan, fuqaro o'z huquqlari buzilganligidan xabar topgandan keyin Pokistonda – 3 oy, Yangi Zelandiya, Rossiya, Ukrainada – 1 yil, Shvetsiyada – 2 yil ichida murojaat qilishga haqli. Bu asosli qoida tariqasida tushuniladi, chunki shikoyat kechiktirilib berilgan sharoitda tekshirish va ma'lumot olish qiyin. Ta'kidlash joizki, mazkur cheklovlar zarur va ombudsman institutining samaradorligini ta'minlashga qaratilgan, chunki bu kabi normani inkor etish ombudsmanga murojaat qilayotgan fuqarolarning soni oshib ketishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa tabiiyki uning faoliyatini to'xtatib qo'yishi mumkin.

O'zbekiston parlament ombudsmanning amaliy faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inson faoliyatini deyarli barcha sohalarida inson huquqlari elemnetlari borligiga qaramay, ombudsman mandati faqat uning qonunda belgilangan kasbiy faoliyati predmeti bilan cheklangan. Shu tufayli ombudsman hozirda fuqarolarning asosiy muammolari ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash, odil sudlovga bo'lgan huquqini ta'minlash va shaxsiy daxlsizligini himoya qilish kabi murojaatlar bilan shug'ullanadi. Fuqarolarni murojaat qiladigan asosiy muammolari asossiz jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot choralarini noqonuniy ravishda qo'llash, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining harakatlari, tergov olib borish tartibini buzish ustidan shikoyatlardir. Bundan tashqari, mahkumlar va ularning qarindoshlari mahkumlarni boshqa joyga o'tqazishda, ularga nisbatan amnitsiya va avf etish hujjatlari qo'llanishida ko'mak ko'rsatishi, tibbiy yordam ko'rsatishni so'rashadi [7].

Ma'lumki, ko'plab muammo va murojaatlar mamlakatimizda sud sohasida bo'layotgan jarayonlarga borib taqalmoqda. O'zbekistonda sud hokimiyatini va tizimini yanda takomillashtirish ombudsmanning vazifasini ham bir muncha yengillashtirib, uning boshqa turdagi muammolarga ham yaqindan e'tibor qaratishini yaxshilaydi. Shu o'rinda bejizga birinchi davlat rahbarimiz 1995 yil 23 fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida shunday deb ta'kidlamagan, "fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini sud orqali himoya qilish sohasini mumkin qadar kengaytirish darkor. Vaholanki, ayrim tarmoq qonunlarida huquqlari poymol etilgan fuqarolarning shikoyatlarini sudlov yo'li bilan emas, ma'muriy yo'l bilan ko'rib chiqish holatlari ham uchraydi. Albatta, bu hol – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va bizning Konstitutsiyamiz talablariga zid. Fuqaro, agar uning qonuniy manfaatlari va haq-

huquqlari poymol etilgan taqdirda, har qanday masala bo'yicha himoya uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lmog'i darkor" [8].

Darhaqiqat, sud sohasiga aloqador muammolardan tashqari ombudsman o'z faoliyati davomida turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni qabul qiladi. Ombudsman har yili o'zining faoliyati bo'yicha yillik hisobotini e'lon qilar ekan, ushbu hisobotida ombudsman o'z faoliyati yo'nalishlarida olib borgan ishlari to'g'risida batafsil ma'lumot berib boradi.

Fuqarolar shikoyatlarining xususiyati va ularda ko'tarilgan masalalar o'ziga xos indikator vazifasini bajaradi va bu, o'z navbatida, jamiyatlardagi mavjud muammolarni va davlat organlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali choralari ko'rish imkoniyatini beradi. Inson huquqlari qonunchilligining buzilish hollarini aniqlash va fuqarolar murojaatlarini hal qilish maqsadida inson huquqlari jamoat tashkilotlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda.

Bundan tashqari bugungi kunda ombudsman bir qator xalqaro va mahalliy loyihalari bilan innovatsion zamonga moslashib bormoqda. Xususan, 2024 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili, O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasi, "Madad" – muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti hamda USAIDning O'zbekistondagi sud-huquq islohoti bo'yicha dasturi bilan hamkorlikda "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga huquqiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishda davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik yo'nalish va mexanizmlari" mavzusida seminar tashkil etildi. Ushbu tadbirni o'tkazishdan asosiy maqsad ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga bepul yuridik xizmat ko'rsatishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish masalalarining dolzarbligi ko'rib chiqish va buni amaliyotga qo'llash haqida kelishuvga erishish hisoblanadi. Bundan tashqari ombudsman ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil choralarni qo'llash masalalarida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi hamda "Xalqaro qamoqxonalarda islohoti" xalqaro tashkiloti Penal Reform International tashkilotining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi bilan hamkorlikni amalga oshirdi. Unga ko'ra, loyiha sudyalarda uchun sud ishlarini yuritish amaliyotida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil choralarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, 2020 yilda Oliy Majlis Inson huquqlari bo'yicha vakili va Penal Reform International tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizdagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vakillari, davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining malakasini oshirishga qaratilgan qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Ta'kidlash joizki, ombudsman va YXHT tomonidan ham bugungi kunda fuqarolarning huquqiy va siyosiy ongini oshirish yo'lida ko'plab amaliy trening va seminarlar tashkillashtirib kelmoqda. Xususan, "Mahkumlarning va qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarni himoya qilish sohasida O'zbekistonda Respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro-huquqiy normalar" mavzusida seminarlar tashkillashtirildi. Davlat rahbari tomonidan 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy

Maslijga Murojaatnomasida hamda 2021 yilgi davlat Dasturida qiynoqlarni oldini olishda ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga "monitoring tashriflari" tizimi yo'lga qo'yilishi kerakligi alohida e'tiborga olinadi [9]. Ushbu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va hamkorlik loyihalari bugungi kunda ombudsman faoliyatining qanchalik tizimli ravishda olib borilayotganligiga guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ombudsman bugungi kunda xalqaro hamkorlikka ham alohida ahamiyat qaratmoqda, inson huquqlari sohasida xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni kengaytirish, xorijiy ombudsmanlarning so'rovnomalarini ko'rib chiqish, xalqaro jamoatchilik orasida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida ma'lumot tarqatish orqali o'z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Ombudsmani xorijiy hamkorlar, jumladan, Rossiya, Polsha, Shvetsiya, Latviya, Ozarbayjon, Slovakiya, Ispaniya, Fransiya ombudsmanlari bilan o'zaro munosabat to'g'risida 8 ta bitim tuzgan. Shuningdek, O'zbekiston ombudsmani AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Chexiya, Shvetsiya, Fransiya, Sloveniya, Xitoy davlatlaridan rasmiy delegatsiyalar, YeXHT, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi, UNICEF xalqaro tashkilotlarining vakillarini qabul qildi. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar va chet mamlakatlarning nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Koreya, Ukraina, Polsha va Niderlandiyaga tashrif buyurib, ombudsmanlarning xalqaro konferensiyasida (Finlandiya) ishtirok etdi [10].

Shuni ham alohida inobatga olishimiz kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili (Ombudsman)ni xalqaro hamkorlikni jadal tarzda rivojlantirib borishida, ko'p yillik tajriba va malakalar unga ko'mak bo'ldi. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ombudsmani 2002-yilning mayidan Yevropa Ombudsman institutining to'liq huquqli a'zosi hisoblanadi. 2009-yil 5-noyabrda esa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis ombudsmani instituti MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib 15 mamlakatdan 23 a'zosini o'rniga birlashgan Osiyo ombudsmanlari assotsiatsiyasining a'zolicigiga qabul qilindi. Ushbu globallashtirilgan davrda ombudsmanlarning ham mas'uliyati, ham faoliyati oshib borar ekan, inson manfaatlarini himoya qilish eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Xulosa. Yuqorida qayd etilgan mulohaza va fikrlardan kleib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, inson manfaatlari har qachongidan ham bugungi turli isyonlar davrida dolzarb mavzuligacha qolmoqda. Xalqaro maydonda turli xil urushlar qurboni bo'layotgan begunoh insonlarning himoyasi albatta har bir davlatning ombudsmaniga ham bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakili (ombudsman) faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o'z ichiga olgan. Darhaqiqat, hozirgi zamon jamiyatining hayoti va faoliyatining Vakilga taaluqli bo'lmagan birorta sohasi yo'q, chunki inson va uning haq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlar vakilning asosiy diqqat obyekti hisoblanadi. Kelgusida inson manfaatlarini yanada oshirish va qonunchilikda inson haq-huquq erkinliklarini himoya qilishda qonun loyihalari ishlab chiqilishidan

barchamiz birdek manfaatdor bo'lamiz. Zero, davlat xalq xizmatkori ekan, inson manfaatlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor maqsad yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov.I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". -T.: "O'zbekiston" 2011. -263 bet
2. Elektron manba: <https://www.ombudsman.uz/oz/managements/ombudsman>.
3. A.A.Sarabekov. Insonning huquq va erkinliklarini xalqaro miqyosda himoya qilish. Risola – T.: TDYUI nashriyoti, 2006. -79 bet
4. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/-7223219>.
5. Elektron manba: <https://www.ombudsman.uz/oz/docs/inson-huquqlarini-taminlashning-yangi-davri>.
6. A.X.Saidov. "Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilush milliy tizimi", -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -174 bet.
7. O'sha manba, -179 bet.
8. Karimov.I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir", 3-tom. –T.: "O'zbekiston", 1996. -18 bet.
9. Elektron manba: <https://ombudsman.uz/uz/category/hamkorlik-loyihalari>.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari vakili (ombudsman)ning 2012-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot. –T.: 2013.